ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SIYMOSI MAQSUD SHAYXZODA TALQINIDA

Jo‘raqulova Marjona,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi 2-bosqich magistri

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19967493

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning “Zahiriddin Muhammad Bobur” asari asosida buyuk sarkarda va mutafakkir Bobur shaxsiyati, uning hayoti va ijodiy merosi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xususan, “Boburnoma” asarining yaratilish tarixi, uning yozilish uslubi, badiiy-estetik xususiyatlari hamda til masalasi atroflicha yoritilgan. Boburning shaxsiyati – davlat arbobi, shoir va inson sifatidagi ko‘p qirrali tabiati tarixiy va adabiy manbalar asosida ochib beriladi. Shuningdek, Bobur lirikasida vatan obrazining markaziy o‘rin egallashi, sog‘inch, musofirlik va milliy o‘zlik tuyg‘ularining poetik ifodasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, ilmiy meros, vatan obrazi, til va uslub.*

Аннотация. *В данной статье на основе произведения Максуда Шайхзоды «Захириддин Мухаммад Бабур» комплексно анализируется личность великого полководца и мыслителя Бабура, а также его жизнь и творческое наследие. В частности, подробно освещаются история создания произведения “Бабурнаме”, его стиль изложения, художественно-эстетические особенности и языковые аспекты. Многогранная личность Бабура – как государственного деятеля, поэта и человека – раскрывается на основе исторических и литературных источников. Кроме того, анализируется центральное место образа Родины в лирике Бабура, а также поэтическое выражение мотивов тоски, изгнания и национальной идентичности.*

Ключевые слова: *Zahiriddin Muhammad Bobur, «Бобурнома», научное наследие, образ Родины, язык и стиль.*

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the personality of the great commander and thinker Babur based on Maksud Shayxzoda’s work “Zahiriddin Muhammad Babur.” It examines Babur’s life and creative legacy in a complex and systematic manner. In particular, special attention is given to the history of the creation of the “Boburnoma”, its writing style, artistic and aesthetic features, as well as linguistic aspects. Babur’s multifaceted personality – as a statesman, poet, and human being–is revealed on the basis of historical and literary sources. Furthermore, the central role of the image of the homeland in Babur’s lyric poetry is analyzed, along with the poetic expression of themes such as longing, exile, and national identity.*

Key words: *Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, scholarly heritage, image of the homeland, language and style.*

Kirish. O‘zbek adabiyoti va davlatchiligi tarixida Zahiriddin Muhammad Boburning tutgan o‘rni beqiyosdir. U nafaqat buyuk sarkarda va yirik saltanat asoschisi, balki o‘zining “Boburnoma” asari bilan jahon tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkir adib hamdir. Bobur shaxsiyati va uning boy ijodiy merosi turli davrlarda ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etib kelingan. XX asr boshlarida Bobur ijodi haqida Abdurauf Fitrat, Olim Sharafiddinov, 50-yillardan so‘ng Vohid Zohidov,

Aziz Qayumov, Botir Valixo‘jayev va boshqa olimlar tadqiqot va maqolalar yaratganlar. Ushbu tadqiqotchilar orasida atoqli adib va olim Maqsud Shayxzodaning qarashlari o‘zining keng qamrovliligi, tarixiy adolatni qaror toptirishga bo‘lgan intilishi va badiiy tahlilining chuqurligi bilan alohida ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili. Fitratning “Adabiyot qoidalari” kitobida eng ko‘p murojaat etilgan shoirlardan biri bu Bobur shohdir. Fitrat Bobur lirikasiga “uslub”, “vazn” va “qofiya” kabi tushunchalar tahlilida, “tajnis”, “qarshiluk” singari poetik san’atlarning go‘zal namunalarini topib ko‘rsatishda murojaat etadi [1.127].

Akademik Vohid Zohidov “Boburnoma”ning 1960-yildagi amalga oshirilgan nashriga yozgan so‘zboshisida: Mirzoning hayotiy e’tiqodi, axloqiy-ma‘naviy pozitsiyasi, insoniy-ijtimoiy missiyasini aniq va muxtasar belgilab bergan. Ayni paytda Bobur Mirzo siymosi, obrazini badiiy idrok etishda, kitobxonga yaqin kelishidagi asosiy omilni ham ko‘rsatib bergan.Aziz Qayumov “Zahiriddin Muhammad Bobur” kitobida Bobur yaratgan ijod namunalari to‘g‘risida, “Boburnoma”dagi voqealar orqali unda bor she’rlarning yozilish sabablari va ularning qisqacha tahlilini ifodalab bergan.

Saidbek Hasanov yirik davlat arbobi va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijod yo‘li haqida “Zahiriddin Muhammad Bobur” risolasida so‘zlaydi. Xususan, Boburning Hindistonda buyuk imperiya barpo qilgani, uning nazmiy va nasriy ijodi, ularning o‘zbek adabiyoti rivojidagi ahamiyati shoir asarlari va boshqa manbalar tahlili asosida ko‘rsatib berilgan. Maqsud Shayxzoda Bobur siymosini faqatgina o‘tmishdagi hukmdor sifatida emas, balki murakkab ruhiy dunyoga ega ijodkor, vatan sog‘inchi bilan yashagan inson hamda turkiy-temuriylar an’analarining davomchisi sifatida talqin etadi. Uning “Zahiriddin Bobur” maqolasida Bobur shaxsiyatining shakllanishi, uning tarbiya omillari hamda Hindistondagi bunyodkorlik faoliyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobiga kiritilgan “Bobir – yo‘lbars” qo‘llanmasida Boburning hayoti, siyosiy faoliyati, badiiy va ilmiy ijodi haqida umumiy ma’lumot beradi. Shoir ijodini o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Navoiydan keyingi ikkinchi ulug‘ shoir sifatida tavsiflaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda adabiyotshunoslik va tarixshunoslikning zamonaviy metodologik yondashuvlari uyg‘un holda qo‘llanildi. Xususan, ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, bir necha ilmiy metodlar tizimli ravishda tatbiq etildi. Avvalo, tarixiy-qiyosiy metod asosida Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati hamda uning ijodiy merosi turli davrlardagi talqinlar bilan solishtirildi. Bu metod orqali Bobur haqidagi qarashlarning evolyutsiyasi, xususan, Maqsud Shayxzoda talqinining o‘ziga xos jihatlari aniqlashtirildi. Biografik

metod yordamida Boburning hayot yo‘li, ijtimoiy-siyosiy faoliyati va shaxsiy kechinmalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik tahlil qilindi. Ushbu yondashuv shoir va hukmdor sifatidagi ko‘p qirrali shaxsiyatni yaxlit holda anglash imkonini berdi.

Tahlillar va natijalar. Muallif Boburning otasi Umar Shayx Mirzoni farzand tarbiyasiga jiddiy e’tibor bergan hukmdor sifatida tanishtiradi: “Umar Shayx Mirzo o‘g‘lining tarbiyasiga katta ahamiyat berib, zamonining ilmlari bilan qurollantirgan edi” [1.9]. Bu fikr orqali Shayxzoda Bobur kamolotini tasodifiy hodisa emas, balki ongli tarbiya natijasi sifatida izohlaydi. Boburning harbiy fanlarga erta qiziqishi ham shundan kelib chiqib talqin etiladi. Shayxzoda Boburning yoshligiga qaramay, otasi vafot etganligi sababli davlat boshqaruvini zimmasiga olishini uning aql-zakovati va mas’uliyatni erta anglagani bilan bog‘laydi. “Otasining vazirlari uning oldiga borib, ta’zim qilib, endi uning hukmdor bo‘lganini bildiradilar. Aqlli bola birdan jiddiylashib, otga xatlaydi va vaziyatning mas’uliyatini sezib, shaharga qarab yo‘l oladi.” [1.10] Muallif bu jumla orqali Boburning ruhiy ulg‘ayishini ta’kidlaydi. Bobur bolalikdan davlat arbobiga aylangan shaxs sifatida ko‘rsatiladi. Bu Boburning keyingi siyosiy faoliyatiga mantiqiy zamin yaratadi.

Maqola davomida Shayxzoda Boburning Shayboniyxon bilan bo‘lgan janggi, uning mag‘lubiyati, mag‘lubiyatdan keyingi ruhiy holati, shuningdek, Hindistondagi faoliyati va shaxsiy fazilatlari haqida fikr bildiradi. Xususan, Boburning Hindistonni bosib olgach, u yerda olib borgan faoliyati (maktablar, madrasalar, ko‘priklar, bog‘lar, bog‘chalar, yo‘llar, karvonsaroylar, ariqlar va imoratlar qurdirishi) haqida fikr bildirar ekan, yozuvchi Boburni faqat zabt etuvchi emas, balki yaratishga intilgan hukmdor bo‘lganini ko‘rsatadi. Shayxzoda yevropaliklarning Boburiylar davlatini noto‘g‘ri talqin qilganligi haqida ham so‘z ochib, ularni tanqid qiladi. Xususan, “Bobur Hindistonda qurgan imperiyani ayrimlar “Buyuk mo‘g‘ullar imperiyasi” deb ataydilar” degan fikrni u tarixiy xato deb hisoblaydi. Muallifning ta’kidlashicha, bu sulola Chingiziylardan emas, balki Temuriylardan kelib chiqqan bo‘lib, uni “turkiy-temuriylar sulolasi” deyish ilmiy jihatdan to‘g‘riroqdir. Bu yerda Shayxzoda Bobur shaxsiga nisbatan milliy va tarixiy adolatni tiklashga intiladi. [1.13]

Shayxzoda Boburiylar davlatining siyosiy va iqtisodiy qudratini ham alohida urg‘u bilan ko‘rsatadi. Uning yozishicha, XVI–XVII asrlarda Boburiylar davlati dunyodagi eng yirik va eng boy saltanatlardan biri bo‘lgan, hatto Yevropaning yetakchi davlatlari bilan solishtirilganda ham iqtisodiy jihatdan ustun turgan. Akademik Bartoldga tayangan holda, muallif Boburiylar byudjeti ayrim Yevropa mamlakatlaridan bir necha barobar katta bo‘lganini ta’kidlaydi. Bu dalillar Boburning tarixiy merosini faqat adabiyot bilan cheklamasdan, uni yirik davlat arbobi sifatida ham baholashga asos bo‘ladi.

Maqolaning muhim qismi Boburning adabiy merosiga bag‘ishlangan. Shayxzoda Boburni o‘zbek adabiyoti tarixida alohida o‘rin tutgan shoir va nosir sifatida baholaydi. Uning “Boburnoma”si, lirik she’rlari, masnaviylari va ilmiy asarlarini sanab o‘tadi. Muallif ayniqsa “Boburnoma”ni Bobur ijodining cho‘qqisi sifatida talqin qiladi. U bu asarni shunchaki xotiralar majmuasi emas, balki tarixiy, etnografik, geografik va adabiy ahamiyatga ega bo‘lgan nodir yodgorlik deb baholaydi. Shayxzodaning fikricha, “Boburnoma”ning eng katta yutug‘i uning uslubidadir. Asar sodda, ravon, xalq tiliga yaqin uslubda yozilgan bo‘lib, bu uni o‘zbek nasrining klassik namunalaridan biriga aylantiradi. Muallif Bartoldning “Hatto XVI asrda ham “Boburnoma” turk nasrining klassik namunasi deb hisoblanar edi” [1.15] degan fikrini keltiradi. Shuningdek, Shayxzoda Boburning til masalasidagi o‘rnini ham yuqori baholaydi. Bobur uzoq yillar Hindistonda yashagan bo‘lsa-da, o‘z ona tilidan uzilmaganini, Andijon shevasiga tayangan holda asarlar yozganini alohida ta’kidlaydi. Muallif Boburning Navoiy tiliga bo‘lgan ehtiromini misol keltirib, “Boburnoma”dagi Navoiy haqidagi iliq baholarni eslatadi. Bu hol Boburning adabiy didi va estetik qarashlari yuksak bo‘lganini ko‘rsatadi. Ya’ni Shayxzoda bu fikrlari orqali Bobur shaxsini tarix, adabiyot va madaniyat chorrahasida turgan ulug‘ siymo sifatida talqin qiladi.

Maqsud Shayxzoda Bobur shaxsiyati va ijodining eng muhim jihatlaridan biri bo‘lgan lirik kechinmalar, g‘urbat va vatan obrazi masalasiga chuqur e’tibor qaratadi. Olim Bobur ruboiylari va g‘azallarini tahlil qilar ekan, ularning kompozitsion tuzilishi va mazmuniy rivojini hayotiy tajriba bilan chambarchas bog‘laydi. Shayxzodaning ta’kidlashicha, Bobur ruboiylarining birinchi qismi ko‘pincha hijron va g‘am-g‘ussadan shikoyat, ikkinchi qismi esa oxir-oqibat ruhiy yengillik, rizo va taskin bilan yakunlanadi. Bu fikrni u Boburning mashhur misralari orqali asoslaydi:

“Ko‘nglum bu g‘ariblikda shod o‘lmadi, oh!
G‘urbatda sevinmas emish albatta kishi.” [1:18]

Bu misralar Boburning g‘urbatda kechgan hayoti faqat siyosiy mag‘lubiyat emas, balki chuqur ruhiy iztirob ekanini ko‘rsatadi. Shayxzoda bu yerda Boburni faqat shoh yoki sarkarda sifatida emas, balki oddiy insoniy tuyg‘ularni kechirgan shoir sifatida talqin qiladi. Shayxzoda Bobur lirikasida vatan obrazining markaziy o‘rin tutishini alohida qayd etadi. Turkiston va Afg‘oniston, keyinchalik Hindistonda yozilgan she’rlarda ham shoir vatan tuyg‘usini unutmaydi. U g‘urbatni “vafo ko‘rmagan yor” timsolida tasvirlab, vatanni esa sog‘inch va sadoqat manbai sifatida ko‘rsatadi:

“G‘urbat ichra, ey ko‘ngil, eldin vafo istarni qo‘y,
Chun vafosin ko‘rmadik hargiz diyoru yorning.” [1.18]

Bu yerda Shayxzodaning kuchli jihati shundaki, u Boburning an’anaviy “yor” obrazini yangi semantik qatlam bilan boyitganini ko‘rsatadi. Yor – bu endi faqat mahbuba emas, balki vatan ramzidir.

Shu bilan birga, Shayxzoda Boburning diniy marosim va qotib qolgan aqidalarga nisbatan tanqidiy munosabatini ham ochib beradi. Bobur hayotning real zavqini anglagan shoir sifatida diniy cheklovlarga befarq qaraydi, ba’zan esa ularga ochiq norozilik bildiradi. Uning mayni mubolag‘ali tarzda madh etishi ham aynan shu norozilikning badiiy ifodasidir:

“May tarkini qilg‘ali parishondurman,
Bilmam qilur ishimg‘a hayrondurman.”

Shayxzoda bu holatni Boburning dahriy g‘oyalarga yaqinlashuvi [1.19] sifatida talqin qiladi. Ammo tanqidiy nuqtai nazardan qaraganda, Bobur ijodidagi bu holatni to‘liq dahriylik deb baholash biryoqlamalik bo‘lishi mumkin. Chunki Boburda dinni inkor etishdan ko‘ra, riyo va mutaassiblikka qarshi norozilik ustun turadi. Shayxzoda Bobur ijodining keng qamrovli va serqirra ekanini ta’kidlab, uning merosi chuqur va mukammal tadqiq etishga munosib ekanini qayd etadi. Muallif Bobur asarlarini o‘rganish nafaqat o‘zbek xalqi, balki boshqa qardosh xalqlarning madaniyatini boyitishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Bu fikr Shayxzodaning Bobur merosiga ijtimoiy va madaniy ahamiyat nuqtai nazaridan yondashganini ko‘rsatadi.

Shayxzoda maqolada “Boburnoma”ga ham to‘xtalib, uni avtobiografik epik-lirik asar sifatida baholaydi. Uning fikricha, “Boburnoma”da tarixiy voqealar shoirning shaxsiy kechinmalari bilan qorishib ketgan. Shayxzoda Boburni asar markazidagi qahramon [1.16] sifatida ko‘rsatib, uning davlat, siyosat va madaniyat haqidagi mulohazalarini yuqori baholaydi. Ayniqsa, Hindistonda markazlashgan davlat qurish g‘oyasini Boburning ilg‘or tarixiy tafakkuri mahsuli sifatida talqin qiladi. Boburning umid va sog‘inch bilan sug‘orilgan misralari bilan yakunlaydi:

“Hijron aro yod etib shod ayla,
Majruh ko‘nglini g‘amdan ozod ayla…” [1.20]

Bu misralar orqali Bobur kelajak avlodlarga murojaat qilayotgandek tuyuladi. Shayxzoda talqinida Bobur o‘z zamonidan o‘zib ketgan, kelajakning baxtiyor nasllar tomonidan minnatdorlik bilan yod etiladigan buyuk adibdir.

Maqsud shayxzoda O‘zbek adabiyoti tarixi qo‘llanmasining alohida bo‘limini Bobir (1483-1530) – Yo‘lbars deb nomlagan. Uning “Hayoti” bo‘limida 12 yoshda taxtga o‘tirgan Bobur vatanini qo‘lga olish uchun uning amakisi Ali Mirzo va tog‘asi Muhammadxon hujum qilganini yozib, bu janglarda Bobur Muzaffar bo‘lganini ta’kidlaydi. Qo‘llanmada 1497-1501-yil voqealari umumiy tarzda berilib, Shayboniyxon bilan bo‘lgan jang natijasiz kechganini yozadi.

Maqsud Shayxzoda 1504-yildan Kobulni egallab, o‘zini “Podshoh” deb e’lon etgani, Hirot shahriga borib, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy qadamjolarini ziyorat etganini ko‘rsatadi. Qo‘llanmaning davomida esa Boburning lirik merosi, “Boburnoma” asari va aruz haqidagi risolasiga to‘xtalgan. [2.44]

Xulosa. Maqsud Shayxzodaning Zahiriddin Muhammad Bobur maqoalsi, O‘zbek adabiyoti tarixi qo‘llanmasining Bobur qismi shuni ko‘rsatadiki, z m b olim merosiga nafaqat adabiy yodgorlik, balki milliy o‘zlik va davlatchilik tarixining ajralmas qismi sifatida yondashgan. Shayxzoda Boburiylar sulolasini “Buyuk mo‘g‘ullar” deb atashni tarixiy xato deb hisoblab, ularning asli Temuriylar shajarasiga mansubligini va “turkiy-temuriylar sulolasi” deb yuritilishi joizligini ilmiy asoslab tarixiy adolatni tiklagan. Shaxsiyat va tarbiya uyg‘unligini asoslab bergan, ya’ni Boburning kamoloti tasodifiy hodisa emas, balki otasi Umar Shayx Mirzo tomonidan berilgan ongli tarbiya va zamon ilmlarini egallashning natijasi ekanligi, bu omil uning yoshligidanoq mas’uliyatli davlat arbobi sifatida shakllanishiga zamin yaratgani haqida ta’kidlaydi. Shuningdek, “Boburnoma” shunchaki xotiralar majmuasi emas, balki o‘zining sodda, ravon va xalqchil tili bilan o‘zbek klassik nasrining yuksak namunasi hisoblanishi, Bobur Hindistonda yashagan bo‘lsa-da, o‘z ona tili va Andijon shevasi an’analariga sodiq qolgani Shayxzoda tomonidan alohida e’tirof etilgan. Shayxzoda Bobur she’riyatidagi an’anaviy “yor” obrazini vatan ramzi bilan boyitib, shoirning g‘urbatdagi iztiroblarini chuqur insoniy dard va sog‘inch sifatida talqin qilgan.

Umuman olganda, Maqsud Shayxzoda talqinidagi Zahiriddin Muhammad Bobur – o‘z zamonidan o‘zib ketgan, ham qilich, ham qalam bilan tarix sahifalarida o‘chmas iz qoldirgan buyuk siymodir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boltaboyev H. Bobur shoh Fitrat talqinida. Mumtoz so‘z qadri. – T.: Adolat. 2004
2. Shayxzoda M. Zahiriddin Muhammad Bobur. qayta nashri /Tanlangan asarlar. 4-tom. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1972.
3. Shayxzoda M.Bobir – Yo‘lbars. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘z RFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. Shayxzoda fondi.
4. Ҳасанов. С. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Т.: Ўзбекистон. 2011.
5. Қаюмов. А. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Т.: Фан. 2008.
6. Sulaymonov I. An artistic interpretation of Babur’s personality in world literature. Journal of critical reviews. Received: 24-April 2020.
7. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. “Шарк”, НМАК, – Т. 2002.